

## O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI MADANIY VA MA'NAVIY ALOQALAR

*Nurmuhhammadova Mohina Habibullo qizi*

*Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Turkiya madaniy va manaviy munosabatlarining o'tmishdagi va bugungi kundagi madaniy aloqalari hamda kelajak istiqbollari haqida ma'lumotlar berilgan. Madaniy va manaviy a'loqalarni ochib berishda taqqoslash va tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy aloqalar va ularning yurtimiz kelajagiga ta'siri va rivojlanishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** hamjihatlik, xalqaro hamkorlik, strategiya, integratsiya, madaniy aloqalar, hamkorlik, bilimlar va tajriba.

### KIRISH

O'zbekiston va Turkiya hamkorligining chorak asrlik yangi tarixini sarhisob qilarkan, mamlakatlarimiz o'zaro hurmat, tomonlarning ochiqligi va samimiyligiga asoslangan teng huquqli muloqot tarafdori ekanligini ta'kidlash lozimdir. Ikkala davlat ham bir-birlarining manfaatlarini inobatga olgan holda hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida tegishli tajribalarga erishdi, deb aytish mumkin.

Shak-shubhasiz, mamlakatlarimiz o'rtasida hamkorlikning o'rnatilishi va shakllanishi yo'lida o'tgan davr uzoq muddatli va ko'p tomonlama bирgalikdagi faoliyatning yangi darajaga ko'tarilishiga mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixdan ma'lumki mamlakatimiz hudulari bir necha bor tashqi bosqinlarga duchor bo'lgan. Qaramlik va zulm ham xalqimizning irodasini buka olmadni, xalqimiz o'zligini yo'qotmadni. O'zining boy tarixi, urf -odatlari, qadriyatlarini saqlab qola oldi. Chor Rossiyasi va sovet mustamlakasi davri xalqimiz ma'naviy merosiga , uning tarixi nisbatan yuritilgan siyosat, madaniy va ma'naviy

boyliklarimizning talon-taroj qilinishi ham madaniyatimizni, urf-odatlarimizni yo'qota olmadi. Madaniyatimizga nisbatan yuritilgan bunday siyosat va yondashuv ko'lab tarixiy yodgorliklarimizni qarovsiz qolishiga, ularning buzilishiga, qo'lyozma kitoblarimizning nashr etilmay yoki tarjima qilinmay qolishiga sabab bo'ldi. Xalqimizni boy madaniyati, tarixidan mahrum qilishga harakat qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixi, madaniyati va ma'naviyati o'ziga qaytdi.

Turkiya va O'zbekiston xalqlarining til, madaniy va etnik yaqinligi ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarning mustahkam poydevori hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorliklarning boshlanishi 1992-yil aprelda Turkiyaning Toshkentdag'i elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O'zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbulda davlatimizning bosh konsulxonasi ochildi. 1996-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan.

Davlatlararo hamkorlikning bugungi yuksak darajasi alohida mammuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar, yuk tashish hajmi, ishbilarmonlik va sayyoqlik safarlari soni ortmoqda. Har hafta 90 dan ortiq aviaqatnov amalga oshirilmoqda. Jadal madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Ma'naviy meros tiklanadi. Ma'naviy meros qadim oia-bobodarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'nviy boyliklar – siyosi, falsafiy, huquqiy diniy qarashlar, qadriyatlar, urf-odatlar, odob-axloq me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Madaniy meros asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan, sayqallanga madaniy –ma'naviy boyliklarimizdir. U jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, o'z davri hayotini aks ettiradi va keyinga avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi.

## METODOLOGIYASI

O'zbekiston Turkiya aloqalari yildan yilga o'zida istiqbolli manzaralarni kash

eta boshladi. Jumladan davlatimizning, xalqaro miqyosida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lganligi ham buni ko'rsatib turibdi. Mustaqillikning dastlabki kunlarida qabul qilingan ko'plab qonunlarda, eng avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizning tashqi siyosiy faoliyati va uning xalqaro hamkorligini amalga oshiruvchi mustahkam tizimning huquqiy asoslari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimi tubdan qayta tuzildi. Mamlakatimizda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va boshqa muassasalar barpo etildi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida O'zbekiston Respublikasining elchixonalari va konsullik vakolatxonalari ochildi. Respublikaning ko'plab vazirliklari, davlat qo'mitalari, konsernlari va banklari tarkibida tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro hamkorlik bilan shugullanuvchi boshqarmalar va bo'limlar tuzildi. Turkiya Respublikasi Prezidenti Turg'ut O'zal (1989-1993 yillarda u prizdent bo'ldi) nomi bilan bog'liq iqtisodiyotni rivojlantirishning "Turk modeli" asosida bozor munosabatlariga o'tilishi natijasida so'nggi chorak asrda Turkiya iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlandi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasida madaniy munosabatlar o'rnatilgan dastlabki kunlardan boshlab, uzoq davr mobaynida bir-biri bilan aloqa qilishdan mahrum qilingan ikki qardosh: o'zbek va turk xalqlarining oddiy fuqarolaridan tortib to yirik shoirlari, yozuvchilari, olimlari, davlat arboblarigacha bir-birlari bilan qayta a'loqalarni tiklashdi. Bir-birlarining madaniy salohiyati, imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'rganish maqsadida turli xil anjumanlar, semenarlar, ko'rgazmalar uyushtirish, ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlar bilan tanishish uchun delegasiyalar almashib, o'zaro foydali bitimlar va shartnomalar tuzish bilan o'zbek-turk iqtisodiy aloqalarini tiklash va rivojlantirish sari ilk qadamlar qo'yildi.

## **RESULTS**

Samarqand shahrida O'zbekiston va Turkiya o'rtasida madaniyat sohasidagi bo'lib o'tgan qo'shma komissiyasining ilk yig'ilishida quyidagi madaniy sohadagi

ishlar ko'rib chiqilgan edi. Unda Madaniyat vaziri o'rinosi Murodjon Majidov, bir guruh soha mas'ullari hamda Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri o'rinosi Batuhan Mumku boshchiligidagi delegatsiya a'zolari ishtirok etdi.

Yig'lishda kino, teatr va sirk, ijodiy va amaliy san'at, madaniy meros va muzeishunoslik, madaniy taraqqiyotni ilgari surish, moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini asrab-avaylash uchun zamonaviy texnologiyalarni, shu jumladan, sun'iy intellektni integratsiyalash sohasida hamkorlik, xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birining madaniyat sohasida taklif etilayotgan tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda tajriba almashish bo'yicha hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

- 2018 yil Turkiya Respublikasi Prezidentining O'zbekistonga tashrifi doirasida imzolangan madaniy aloqalarni rivojlantirish bitimi o'tgan davr mobaynida ikki mamlakat o'rtaida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi, - deydi Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri o'rinosi Batuhan Mumku. - Bugungi yig'lishda ham ikki mamlakatda madaniyat va milliy kino kunlari, teatr haftaliklarini tashkil etish, hamkorlikda film va sahna asarlari yaratish hamda YuNESKO, AYSESKO, TURKSOY va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda madaniy tashabbuslarni targ'ib qilish borasida kelishuvga erishdik. O'ylaymizki, bu ishlar ikki mamlakatning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligi uzoq vaqt davom etishini ta'minlaydi. Yig'lish yakunida ikki davlatning madaniyat sohasidagi qo'shma komissiya ahdlashuv bayoni imzolanib, O'zbekiston va Turkiya o'rtaida madaniyat sohasida II qo'shma komissiyasi yig'lishini 2025 yilda Turkiyada o'tkazishga kelishib olindi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-avgust kuni Turkiya madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv boshida yuqori martabali mehmon O'zbekiston yetakchisiga Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'anning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston—Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, madaniy-gumanitar va sayyohlik sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

### **DISCUSSION**

Davlatlararo hamkorlikning bugungi yuksak darajasi alohida mammuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar, yuk tashish hajmi, ishbilarmonlik va sayyohlik safarlari soni ortmoqda. Har hafta 90 dan ortiq aviaqatnov amalga oshirilmoqda.

Jadal madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tegishli “yo'l xaritasi”ni tezroq qabul qilish, amaliy hamkorlikning institutsional mexanizmlarini ishga tushirish, milliy madaniyat va kino kunlarini o'tkazish, san'at, madaniy merosni muhofaza qilish, turizm salohiyatini yuzaga chiqarish va boshqa ustuvor yo'naliishlarda qo'shma loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

### **CONCLUSION**

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'zaro diplomatik aloqalarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

- Turkiya dunyoda rivojlangan davlatlardan biri sifatida O'zbekiston mustaqilligini tan olgan ilk davlatlardan biri sifatida amaliy va konstruktiv muloqotni yo'lga qo'ydi;
- O'zbekiston va Turkiya aloqalarini o'rnatishda avvalo hamkorlikning huquqiy asoslarini shakllantirishga ahamiyat qaratildi. Ikki davlat Prezidentlarining

davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, davlat tashriflari va yuqori darajadagi siyosiy muloqotlarida barcha sohalarda bitimlar imzolandi va ushbu hujjatlar asosida uning huquqiy asoslari shakllantirildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. Asarlar. T.1-24.-Toshkent: “O'zbekiston”, 1996-2016.
2. Karimov I.A. Istiqlol yo‘li” muammolar va rejalar. – Toshkent: “O'zbekiston” 1992.- 32 bet.
3. Karimov I.A. Vatan ozodligi- oliv saodat (o'zbek, ingliz, rus tili). – Toshkent: “O'zbekiston”, 1999.-64 bet.